

2022
5(7)

IQTISODIYOT VA TURIZM
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ
международный научно-
инновационный журнал

ECONOMICS AND TOURISM
international scientific and
innovative journal

ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-2561

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-256X

"IQTISODIYOT VA TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»
международный научно- инновационной журнал

"ECONOMICS AND TOURISM"
international scientific and innovative journal

№5(7) 2022

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022 yil 30 apreldagi 315/5-son qarori bilan iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy-innovatsion jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Экономика и туризм» международный научно- инновационный журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-инновационном журнале «Экономика и туризм» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Economics and Tourism" international scientific and innovative journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific and innovative journal "Economics and Tourism" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.



EDITORIAL BOARD

Chairman of the Editorial Board

Navruz-Zoda Bakhtiyor Negmatovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Vice-Chairman of the Editorial Board

Khamraev Khalim Razikovich

Bukhara State University Docent Doctor of economical sciences

Main editor

Khidirova Gavkhar Rustamovna

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Members of editorial board

Khamidov Obidjon Khafizovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Akhmedov Tursun Mukhitovich

Institute of forecasting and macroeconomic researcher (IFMR) Deputy director professor,

Doctor of Economic Sciences (DSc)

Maydyrova Aigul Bulatovna

Doctor of Economics, Professor. Head Department of "Economics and Entrepreneurship" of the Faculty of Economics of the Eurasian National University L.N. Gumilyov

Ivlieva (Shaposhnikova) | Olga Vasilevna

Doctor of Geography, Professor of the Tourism Department of the Higher School of Business of the Southern Federal University

Mutalieva Lyailya Maratovna

Candidate of Economic Sciences, Associate Professor, Head of the Department "Tourism" of the Eurasian National University L.N. Gumilyov

Djavlonbek Kadirov

Place of work: Victoria University of Wellington PhD in Marketing

Khazhimov Pazliddin Zukurovich

National university of Uzbekistan Docent Doctor of philosophy (PhD) of Economic sciences

Navruz-zoda Zebiniso Bakhtiyorovna

Doctor of philosophy on economic sciences (PhD), Associate Professor Department of Economics of the Bukhara State University

Oripov Makhmud Ashurovich

Bukhara State University associate professor Department of ""Agribusiness and Agro Logistics""

Abdullaev Ilyos Sultanovich

Urgench State University professor Doctor of economic sciences

Alimova Mashhura Toirxonovna

Samarkand Institute of Economics and Service Professor of the Department of Management DSc in Economics

Juraev Abror Turobovich

Bukhara State University Vice-rector for International Cooperation Candidate of economic sciences

Ibragimov Nutfillo Salimovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Tadjieva Sayyorakhon Uralovna

Bukhara State University Head of the Department Candidate of economic sciences

Responsible editor: Gavhar Xidirova

Web-administrator: Erkin Farmonov



MUNDARIJA

Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Ҳилола Нематовна Очилова. Таълим хизматларини сифатини оширишда синергетик самара усулларида фойдаланиш имкониятлари	5
Хашимов ПазлиддинЗукурович, Жаббаров Зарифбой Рустамович, Рустамова Дилшода Зарифбой кизи. Тадбиркорлик фаолиятини иқтисодий ҳавфсизлигининг моҳияти ва шакллари	13
Nutfillo Salimovich Ibragimov. Turistik hudud raqobatbardoshligiga oid nazariy bilimlarning shakllanish bosqichlari	21
Нурманов У.А. Курилиш материаллари ишлаб чиқариш корхоналарида тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришда таҳлилнинг муҳимлиги	31
Uroqov Mamurali Odil oglu. The concept of labor resources as a socio-economic category and its scientific theoretical development	39
Yuldashev Kamol Sharifovich. Mustaqil turizmning mohiyati va uni xalqaro tajriba asosida O'zbekiston Respublikasida rivojlantirish imkoniyatlari.....	47
Хотамов Алишер Хотамжон ўғли. Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноати корхоналарида тайёр маҳсулотлар ҳисоби, ички назорат ва ички аудитини такомиллаштириш	60
Maxmudova Nodira O'ktamovna. Ta'lim turizmi xizmatlarining tamoyillari, vazifalari va funksiyalari.....	71
Исмаилов Азизбек Рузимахамматович. Аҳоли бандлигини тартибга солишнинг хориж тажрибаси.....	81
Очилова Ҳилола, Азизова Саодат. Анализ развития пещерного туризма в Узбекистане	89
Yakubova Shamshinur, Qosimov Jahongir. Meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirishda kooperatsiya tizimini tashkil etishning iqtisodiy asosi.....	96
Bolbekova Gulnoza Shukrullo kizi. Ensuring The Stability of the Process of Active Employment in Industrial Enterprises.....	104

Maxmudova Nodira O'ktamovna

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant

n.u.mahmudova@gmail.com

TA'LIM TURIZMI XIZMATLARINING TAMOYILLARI, VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif ta'lim turizmi xizmatlarining tamoyillari, maqsad, vazifa va funksiyalarining mohiyatini, turli manbalarda ularning talqinini tizimli o'rganib, tahlil qilgan. Muallif ta'lim turizmi xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy tamoyillar taklifini keltirib, mavjud va yangi tamoyillar asosida ta'lim turizmi xizmatlari tamoyillarining "Sustainability"(Barqarorlik) konsepsiyasini ishlab chiqqan. Ta'lim turizmi xizmatlarining maqsad, vazifa va funksiyalarini nazariy hamda amaliy jihatdan yoritib, tegishli jadval va rasmlarda ifodalagan.

Kalit so'zlar: ta'lim turizmi xizmatlari tamoyillari, ta'lim turizmi xizmatlari tamoyillarining "SUSTAINABILITY"(Barqarorlik) konsepsiyasi ta'lim turizmi xizmatlari maqsadi, ta'lim turizmi xizmatlari vazifalari, ta'lim turizmi xizmatlari funksiyalari.

Kirish

Turizm globallashuv va jamiyat hayotining turli yo'nalishlari, jumladan, fanning jadal rivojlanishi, ta'lim, iqtisodiyot va tadbirkorlik sohalari taraqqiyoti kabi omillar ta'sirida zamonaviy insonni turmush tarzining ifodalovchi tarkibiy qismiga aylandi. Ayni paytda turizm xalqaro ko'lamda ommaviy ijtimoiy - iqtisodiy soha sifatida alohida o'rin egallamoqda. 2022 yil avgust oyigacha xalqaro tashriflar pandemiyadan oldingi davrning 57%igacha yetdi, mos ravishda BTT ekspertlari 2022 yil may-avgust oylarida xalqaro tashriflar holatini 200 ballik shkala bo'yicha 125 ball bilan baholadi¹. Bundan xalqaro ko'lamda turli beqarorlik holatida ham turizmda ijobiy ko'rsatkichlarni kuzatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko'tarish,...fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish..."²ga yo'naltirilgan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish, yoshlarni turizmga jalb etishga e'tibor qaratilmoqda. Fikrimizcha, sayohatni ma'lum mavzuda dunyoqarash, bilimni oshirish, ko'nikmaga ega bo'lish kabi jarayonlar bilan boyitish nafaqat yoshlarni, balki turistlarning keng auditoriyasini qamrab oladi.

Ta'lim turizmi ta'lim xarakterini ifodalovchi, ya'ni yangi bilim va kerakli malakaga ega bo'lish birlamchi maqsadi bo'lgan turizm turi hisoblanadi. Shu o'rinda, ta'lim turizmni amalga oshirishga undovchi omillarni sanab o'tish mumkin: dam olish, nufuz, zamonaviylik, o'z "men"ini yangilash zarurati, ijtimoiy munosabatlar kirishish, yangilikka intilish, yangi bilim va tajribalar orttirish kabilar. Ta'lim sayohatlari ta'lim mobilligini shakllantirishga, ko'nikmalarni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Ta'lim turizmi xizmatlari turistik kategoriya sifatida o'z tamoyil, funktsiya va vazifalariga ega. "Tamoyil - biror sohada tartib, qoida tusini olgan tadrijiy yo'nalish"³, jumladan "ta'lim turizmi barqaror taraqqiyoti uchun tizimlilik, pedagogik, ko'p darajalilik, fanlararo, madaniyatlararo, resurs potentsiali, mijozga yo'naltirilganligi hamda vaqtning cheklanganligi kabi

¹ UNWTO World Tourism Barometer: September 2022

² [Ички туризм хизматларини диверсификация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида](#) Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 30.04.2022 йилдаги ПҚ-232-сон

³ <https://uz.wiktionary.org/wiki>

sakkiz tamoyilga amal qilish zarur"¹:

Tizimlilik tamoyili elementlar (turizm, ta'lim), aloqa, tuzilma, tashkilot, boshqaruv, barqarorlik, rivojlanish, ochiqlik, faol ishtirok kabi tushunchalar orqali izohlanadi.

Ta'lim turizmi xizmatlarining birlamchi maqsadi ta'lim bo'lganligi va mos ravishda ta'lim turistik jarayonda pedagog ishtirok etish zaruriyati *pedagogik* tamoyil talabini shakllantirdi. Ta'lim turizmi tushunchasi pedagogik faoliyat subyektlari bilan bevosita aloqador bo'lgan ta'lim komponentini o'z ichiga oladi.

Ta'lim turizmi xizmatlari turli mezonlar bo'yicha tasniflanadi: yoshi va ijtimoiy maqomi, ta'lim darajasi, destinatsiya, mazmuni. Ushbu mezonlar ham o'z navbatida bir necha darajali tarkibga ega. Masalan, yosh mezoni quyidagicha tasniflanadi: maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi, talabalar, mutaxassislar, keksa yoshdagilar. Mos ravishda, bu uchinchi tamoyil ko'p darajalilikni izohlaydi.

Ta'lim turizmi tarkiban quyidagicha tasniflanadi: kasbiy ta'lim, malaka oshirish, maxsus fanga yo'naltirilgan ta'lim, siyosiy ta'lim, til o'rganish maxsus kurslari, maktab va boshqa ta'lim dargohlarida qisqa muddatli an'anaviy ta'lim. Ushbu sanab o'tilgan tarkib faoliyatini shakllantirishda to'rtinchi tamoyil - *fanlararo* tamoyilni kuzatish mumkin. Odatda, ta'lim turizmi samarali ta'lim shakli sifatida namoyon bo'ladi, shu jumladan, geografiya, biologiya, ekologiya, tarix, madaniyatshunoslik, adabiyot, tilshunoslik bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqishda bu fanlarning kombinatsiyasini, bir-biriga moslashtirishni nazarda tutadi.

Ta'lim turizmining yana bir muhim mezoni bu destinatsiya bo'lib, unga ko'ra ta'lim turizmi quyidagi darajalarga bo'linadi: milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro. Destinatsiya mezoniga ko'ra tasniflash ta'lim turizmining beshinchi tamoyilini - *madaniyatlararo* tamoyilini shakllantirishni nazarda tutadi: ko'rib chiqilayotgan turdagi sayohatlar orqali sayyohlar qaysidir ma'noda mamlakatning madaniyati, an'analari va turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar.

Ta'lim turizmi xizmatlarini takomillashishda hududning mavjud resursi alohida ahamiyatga ega: bolalar uchun mo'ljallangan sog'lomlashtirish oromgohlari, sanatoriyalar, oliy ta'lim dargohlari, qo'shimcha ta'lim olish tashkilotlari, bolalar san'at maktabi, dam olish uylari. Bu oltinchi tamoyil - ta'lim turizmi *resurs potensialining* mavjud bo'lishini taqozo etadi².

Barcha turizm turlarida, jumladan ta'lim turizmida ham kuzatiladigan umumiy tamoyillardan biri - *mijozga yo'naltirilganligi* alohida o'rin tutadi. Bunda mijozning xususiyati (yoshi, qiziqishi, kasbi, daromadi kabilari), ehtiyoji borasidagi ma'lumotlar ahamiyatlidir.

Turizm va sayohat tushunchalarini farqlaydigan jihatlaridan biri *vaqtning cheklanganligi*dir, ya'ni bir yilgacha bo'lgan muddatdagi sayohat turizm hisoblanadi. Ta'lim turizmida ham taklif etiladigan xizmatlar kompleksi belgilangan vaqt davomida amal qilishi zarur.

Ta'lim turizmi xizmatlarini ko'rsatish tegishli tamoyillardan tashqari belgilangan maqsad, vazifa va funksiyalarga ham ega.

Rus olimi A.V.Sudorojenko fikricha, ta'lim turizmi quyidagi funksiyalarni bajaradi³:

- faol mehnatning turistik, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy, estetik va sog'lomlashtiruvchi shakllarini uyg'unlashtirish orqali ijodiy, intellektual, bilimli shaxsni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishda qo'llaniladigan *intellektual va tarbiyaviy funksiyasi*;

- *madaniy va kognitiv* - o'qituvchilarning ta'lim faoliyati orqali aholi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Talabalarining tabiiy muhit bilan o'zaro munosabati asosida ijtimoiy tajriba va madaniyat zaruriyati;

- *ekskursiya* ishtirokchisining ma'naviy, jismoniy, psixologik kuchini tiklashga, o'ziga xos kasalliklarni tabiiy manbalar (gidroterapiya, loy bilan davolash va boshqalar) bilan davolashga

¹ Гусейнова А.Г. Сущность понятия «образовательный туризм» и его основные принципы. Вестник Ассоциации вузов туризма и сервиса. 2015. №4. Том 9. С.64-69.

² Ковалёва А.Н. Педагогический потенциал образовательного туризма в системе непрерывного образования человека: автореф. дис. канд. пед. н.. В. Новгород, ФГБОУ ВПО Новгородский гос. ун-т имени Ярослава Мудрого, 2013.

³ Судороженко А.В. Функции и роль образовательного туризма. Вестник университета, №16, 2013. 96-стр.

qaratilgan *rekreatsion va sog'lomlashtirish*.

Yana bir rus olimi M.A.Jukova o'zining darsligida quyidagi fikrlarini keltirgan: "ta'lim turizmi ko'p qirrali fenomen sifatida yirik guruhlariga bo'linuvchi funksiyalarni bajaradi"¹:

- *ijtimoiy-gumanitar funksiyasi*: kognitiv-ma'rifiy yo'nalishdagi yondashuv, ya'ni milliy hamda xorijiy davlatlar hududlari tabiati, aholisi madaniyati, tarixi haqida bilimlarni shakllantirish va boyitish;

- *ijtimoiy-iqtisodiy funksiyasi*: bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish, aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasini oshirish - iqtisodiyot barqaror rivojining muhim omili hisoblanadi.

Boshqa manbada keltirilishicha², mustaqil sayyohlar uchun ta'lim turizmining asosiy funksiyasi *tarbiyaviy funksiyasi* hisoblanadi. Ta'lim turizmi xizmatlaridan foydalanganda, iste'molchida muammolarning hal qilish va fikrlash qobiliyati, shaxslararo muloqotga kirishish qobiliyati, axborot boshqaruv qobiliyati, o'z-o'zini boshqarishni o'rganish qobiliyati, moslashuvchanlik, ijtimoiy va madaniy bag'rikenglik, vaqt va moliyaviy boshqaruv qobiliyati va o'zini motivatsiya qilish va mustaqil bo'lish qobiliyatlarini rivojlantiradi, yangi narsalarni kashf qilish, bilimlarni oshirish, turli madaniyatlar bilan tanishib, o'rganadi. Demak, ta'lim va o'rganish funksiyasi turistning sayohatni amalga oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim turizmi turistning kirishuvchanlik, qiziquvchanlik, tahliliy fikrlashi, moslashuvchanlik xususiyati orqali bilim olishga bo'lgan ehtiyojini to'la qondira oladigan turizm turi hisoblanadi.

Ikkinchidan, tarbiyaviy funksiyasidan tashqari, turistlar uchun *tajriba va amaliyot funksiyalari* juda muhim sanaladi. Bu tajriba va amaliyotlar o'z ichiga amaliyot rejasi, hayotiy tajriba, madaniy ko'nikmalar va boshqalarni oladi. Masalan, Fang tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki³, ta'lim turizmi sayyohlarga chuqur hayot tajribasini beradi, dunyoni kengroq ko'radi, shaxsiyatini rivojlantiradi, dunyoqarash va iste'dodini kengaytiradi va maqsadiga erishadi. Aynan ta'lim turizmi turistlarga doimiy hayot tarzidan farqli hayot kechirish va buni o'zi amalga oshiradigan amaliy faoliyatlar va tajribalar orqali taqdim etadi.

Muloqot va hamkorlik funksiyalari. Guruh sayohati yoki individual sayyoh bo'lishidan qat'iy nazar ta'lim turizmida ishtirok etish belgilangan tartiblarga rioya qilishni talab etadi. Misol tariqasida guruh sayohatini olsak, sayohat qilish, yashash, ovqatlanish, ko'ngil yozish, xaridlar kabi faoliyatlar, manzarali joylar, sayyohlik joylariga tashrif buyurishlar ko'ngildagidek o'tishi, chuqur taassurot qolishi uchun birgalikda va tartibli shakllantirilishi kerak. Natijada hamkorlikda ishlash, insonlar bilan muloqotga kirishish, bir-biriga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Bundan tashqari, ta'lim olish va sayohat jarayonida farqli urf-odat, madaniyat, hayot tarziga to'qnashishi tabiiy. Bunday paytda guruh a'zolarining birdamligi va hamkorlikda ishlash va mahalliy aholi bilan muloqot qilish, kirishuvchanlik xususiyatlari juda muhim. Tur ishtirokchilari va tegishli shaxslar o'rtasidagi ijobiy munosabat turli ziddiyatlarni bartaraf etadi, sayohat xavfsizligini, jumladan shaxsiy xavfsizlik va mulk xavfsizligini ta'minlaydi.

Iqtisodiy funksiyasi. Turistlar uchun ta'lim turizmi ta'lim olish, o'rganish, tajriba va amaliyot funksiyalari, muloqot va hamkorlik funksiyalari bilan xarakterlidir. Shuningdek, turistik yo'nalishlar uchun ta'lim turizmining iqtisodiy funksiyasi ham mavjud. Ta'lim turizmi shahar yoki mintaqaning nafaqat turizm industriyasini, balki boshqa tarmoqlarning ham rivojiga hissa qo'shadi. Ta'lim turizmini rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, umumiy iqtisodiy darajani oshirish mumkin. Buning ma'nosi ta'lim turizmining mintaqaviy iqtisodiyotiga ta'sirini sarmoya, bandlik, tadbirkorlik va iste'mol o'sishida kuzatish mumkin.

Ijtimoiy funksiyasi. Turistik yo'nalishlar va sayyohlar uchun ta'lim turizmining

¹ Жукова М. А. Менеджмент в туристском бизнесе: Учебник для поступающих в ВУЗы, М.: Кнорус, 2013. С. 192.

² Cui, Yingfang. Research on the development status and suggestions of research & study travel. Jiangsu Business.Theory. 2020;03:74-76.

³ Tsai-Fa Yen, Qinglin Zhang, Yanxia Zhang. The Nature of Educational Tourism: The Aspects of Means-end Chain Approach, Yen et al.; AJESS, 17(1): 1-16, 2021; Article no. AJESS.67893

takomillashuvi, turli madaniyat va irq vakillari bo'lgan turistlarning muayyan hudud rezidentlari o'rtasida kommunikatsiya va o'zaro munosabatga kirishishni oshiradi. Demak, ta'lim turizmi rivojlanishi *shaxslararo o'zaro munosabatlarni* shakllantirishda ijobiy ta'sirga ega. Bunday shaxslararo o'zaro ta'sirni turli hududlardagi, turli soha va kategoriyadagi turistlar o'rtasida hamda turistlar va mahalliy aholi o'rtasida kuzatishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, ta'lim turizmi sababli turistlar guruhining suhbatlashadigan umumiy mavzusi mavjud, o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarda ishtirok etishi, berilgan vazifalarni bajarish uchun birgalikda guruh a'zolari bilan muloqot qilib, o'zaro munosabatlarga kirishishi, bir-biridan xabardor bo'lishi, yordam berishi, g'amxo'rlik qilishi kerak bo'ladi.

Mustaqil turist yoki turistlar guruhi bo'lsin, nafaqat mavjud diqqatga sazovor joylarni kuzatish, balki guruhlararo, maktablararo, shaxslararo munosabatlarga kirishish, o'rganish imkoniyati mavjud (1-jadval).

1-jadval

Ta'lim turizmi xizmatlari funksiyalari¹

Muallif	Funksiyalari
Судороженко А.В. 2013	-faol mehnatning turistik, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy, estetik va sog'lomlashtiruvchi shakllarini uyg'unlashtirish orqali ijodiy, intellektual, bilimli shaxsni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladigan <i>intellektual va tarbiyaviy</i> ; - <i>madaniy va kognitiv</i> , o'qituvchilarning ta'lim faoliyati orqali aholi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Talabalarning tabiiy muhit bilan o'zaro munosabati sohasida ijtimoiy tajriba va madaniyatning o'tkazilishi mavjud; - ekskursiya ishtirokchisining ma'naviy, jismoniy, psixologik kuchini tiklashga, o'ziga xos kasalliklarni tabiiy manbalar (gidroterapiya, loy bilan davolash va boshqalar) bilan davolashga qaratilgan <i>rekreatsioon va sog'lomlashtirish</i> .
Жукова М. А. 2013.	<i>Ijtimoiy - gumanitar funksiyasi</i> : kognitiv-ma'rifiy yo'nalishdagi yondashuv, ya'ni ham milliy hamda xorijiy davlatlar hududlari tabiati, aholisi madaniyati, tarixi haqida bilimlarni shakllantirish va boyitish; <i>-ijtimoiy-iqtisodiy funksiyasi</i> : bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish, aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasini oshirish- iqtisodiyotni barqaror rivojining muhim omili hisoblanadi.
Cui (2020)	<i>Ta'lim funksiyalari</i> : muammolarni yechish va fikrlash qobiliyati, shaxslararo aloqa qobiliyati, axborotni boshqarish qobiliyati, o'z-o'zini boshqarishni o'rganish qobiliyati, moslashuvchanlik, ijtimoiy va madaniy bag'rikenglik, vaqt va moliyaviy boshqaruv qobiliyati, o'z-o'zini rag'batlantirish <i>Ruhiy tarbiya funksiyalari</i> : bilim idroki, ichki motivatsiya, turli madaniyatlarni o'rganish va anglash, muammoni topish xususiyati, ixtisoslashgan sohada fikrlash ko'nikmasining shakllanishi.
Fang (2019)	<i>Amaliy funksiyalar</i> : "ta'lim berish bu qiziq" noyob o'quv modeli asosiy ta'limga foydali qo'shimcha va o'quvchining ta'lim davomiyligini ta'minlash uchun muhim ijtimoiy amaliyot hisoblanadi.

¹ muallif ishlanmasi

	<i>Shaxslararo muloqot funksiyalari:</i> turli mintaqalar, turli millat va turli irq vakillari bilan munosabatda va aloqa bo'lish orqali bolalar turli madaniyatlarni hurmat qilishni va ularga hurmat bilan munosabat qilishni o'rganishlari mumkin.
	<i>Hamkorlik funksiyalari:</i> bolalarning jamoaviy yordam ruhini va qobiliyatini rivojlantirish va yaxshilash, lekin shuningdek bolalarning olijanob kayfiyati va ijtimoiy mas'uliyatini samarali rivojlantirish.

Jadvalda ko'rinib turibdiki, mualliflarning ta'lim turizmi funksiyalari bo'yicha farqli yondashuvlari mavjud:

- rus olimi A.V.Sudorjenko ta'lim va tabiiy muhit ta'sirida intellektual, sog'lom va kognitiv fikrlaydigan shaxsning shakllanishini nazarda tutuvchi funksiyalar mavjudligini ta'kidlagan;
- yana bir rus olimi M.A. Jukova ta'lim turizmiga ko'p qirrali fenomen sifatida qarab, kognitiv-marifiy hamda iqtisodiy barqarorlik tushunchalarining jamiyatdagi o'rni nuqtai nazaridan yondashgan;
- Xitoy olimi Cui Yingfang ta'lim turizmi orqali insonning ruhiy tarbiya hamda shaxsiy va ijtimoiy moslashuvchanlik qobiliyatlari shakllanishiga e'tibor qaratgan;
- yana bir xorijiy tadqiqotchi Fang, aynan ta'lim turizmi orqali turistlarda nazariyani amaliyot bilan solishtirish imkoniyati shakllanishi, natijada tegishli tajriba va ko'nikmaga ega bo'lishi ta'minlanishini bildiradi.

Fikrimizcha, yuqoridagi tahlilda ta'lim turizmi funksiyalari to'g'risidagi fikrlar bir-biridan farqli bo'lsada, ularni birlashtirib turuvchi asosiy tushuncha inson faktori nuqtai nazaridan bir-birini to'ldiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ta'lim turizmi xizmatlarining tamoyil, maqsad, vazifa, funksiyalari mantiqiy mushohada, tanqidiy tahlil, analiz va sintez, tizimli yondashuv usullaridan foydalanib tahlil qilindi.


Tahlil va natijalar

Fikrimizcha, bugungi kunda, jahon iqtisodiyotida, jumladan xizmat ko'rsatish sohasida dinamik o'zgarishlar kuzatilayotgan davrda, yuqorida keltirilgan ta'lim turizmi xizmatlari tamoyillariga qo'shimcha ravishda quyidagi tamoyillar taklifi maqsadga muvofiq bo'ladi (1-rasm):

- *raqamlashtirish*, ya'ni aloqa xizmatlari va vositalarini, axborot kommunikasion texnologiyalarni takomillashtirib, elektron axborot ta'minoti va almashinuvini ta'lim turizmida ham qo'llash zamon bilan hamnafas tarzda so'nggi ma'lumotlardan foydalanishning ham vaqt, ham makon, ham iqtisodiy jihatdan mobilligini oshiradi. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek¹, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi", bu borada "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi bo'yicha faoliyatlar amalga oshirilmoqda;

- *ko'ptillilik (poliglot)*- bu tamoyil ta'lim turizm xizmatlari realizasiyasida taklif etuvchi, hamda iste'molchi nuqtai nazaridan ahamiyatli hisoblanadi. Birinchidan, joriy turizm turida, jumladan til o'rganish kurslari xizmatlari taklifida ham iste'molchi sifatida turli millat vakillari qatnashadi, mos ravishda ular ehtiyojini to'la qondirishda ko'p tillarda ma'lumot, axborot, bilimni taklifini shakllantirish kerak. Ikkinchidan, iste'molchi mustaqil sayyoh sifatida sayohatini maroqli tashkil etishida mahalliy xizmatlardan foydalanishda til bilimdonligi birlamchi hisoblanadi;

¹ Ўзбекистон президенти Ш.Мирзиёев Олий Мажлиси 2020 йилги Мурожаатномаси



2.1-rasm. Ta'lim turizmi xizmatlarining yangi tamoyillari taklifi¹

- *mahoratlik*-bu tamoyilda ta'lim turizmi xizmati taklif etuvchilari va iste'molchilari qobiliyati, iste'dodi nazarda tutilgan bo'lib, to'liq jarayon uzluksizligi mahorat bilan shakllanishida alohida o'rin tutadi;

- *innovation yondashuv*- ta'lim turizmi xizmatlari bozorida raqobarbardosh taklifni shakllantirish va yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy yo'lidir. Doimiy yangi shakl va usullarda ushbu turizm xizmatlarini shakllantirish talab etiladi.

- *sifat menejmenti*- sifati doimiy nazoratda bo'lishi, qay darajada yuqorida sanab o'tilgan barcha tamoyillarga amal qilinib, xizmat taklifi amalga oshirilgani yo'lga qo'yilgani, boshqarilishi juda muhim sanaladi.

-*davomiylik*- turizmning kelajagi uning murakkabligi, moslashuvchanligi, xilmaxilligi, turistik xizmatlar iste'molchisiga individual yondashishi va, albatta, ishning yangi shakl va usullarini doimiy joriy etishdadir. Shuning bilan birga, ta'lim turizmi xizmatlari davomiyligini ham ta'minlash zarur. Bu o'z navbatida davomiylikni ta'minlovchi omillarning ham tartibli va doimiy ravishda o'rganib, tahlili qilib borilishi hamda tegishli o'zgarishlarni joriy qilishni talab etadi.

Yuqorida keltirilgan barcha, ya'ni mavjud va taklif etilayotgan tamoyillarni birlashtirgan holda biz ta'lim turizmi tamoyillarining **SUSTAINABILITY(Barqarorlik) konsepsiyasini** taklif etamiz (2-rasm).

Hozirgi vaqtda, koronavirus pandemiyasidan keyingi davrda va qo'shni mamlakatlardagi nizolar jahon iqtisodiyotida beqarorlik holatiga sabab bo'lmoqda. O'z navbatida, turizm sohasiga ham bevosita ta'sir etib, uning keying davrdagi ko'lamini baholashda mavhumliklarni keltirib chiqarmoqda. Fikrimizcha, bunday o'zgarishlar turizm va ta'lim xizmatlari, texnik va dasturiy ta'minot hamda tashkiliy faoliyat talablarida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, turistik tashkilot (turoperator)larning xizmat ko'rsatishiga ta'siri virtual tur va ekskursiyalarni shakllantirishida; ta'lim xizmatlari esa onlayn maktab, kurs, trening shakliga o'tishi, hamda ta'lim turizmi xizmatlari taklifida onlayn vebinar, master-klasslar, turli masofaviy tadbirlar ko'rinishida kuzatishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha, yuqorida sanab o'tgan barcha xizmatlar "zamonaviy xizmat"lar desak xato bo'lmaydi va ayni paytda ularga talab yuqoriligini kuzatish mumkin. Aynan informasion va raqamli texnologiyalar asrida tegishli bilim hamda til, boshqaruv va kasbiy savodxonligiga ega mutaxassis o'z xizmatlarini innovatsion yondashgan holda ko'rsatishi zarurdir. Zamonaviy xizmatlarga talab barqarorligini ta'minlashda yuqorida taklif etilgan ta'lim turizmi xizmatlari

¹ Muallif ishlanmasi

tamoyillarining "SUSTAINABILITY" konsepsiyasi alohida ahamiyatli sanalib, aynan shu tamoyillar asosida xizmatlar shakllantirilsa, mijozlar ishonchini oshirish va doimiy mijozga aylantirish mumkin.

Shuningdek, ta'lim turizmi xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirishda uning funksiyalari ham e'tiborga molikdir. Ta'lim turizmi funksiyalari esa uning maqsad va vazifalari asosida shakllanadi. Ya'ni, bilamizki, har bir faoliyatda maqsad biror natijani ko'zlab, vaqt va xohish nuqtai nazaridan aniq bo'lishi lozim. Masalan, O'zbekistonda 2023yilda turistik xizmatlar tarkibida ta'lim turizmi xizmatlari ulushini 15%ga oshirish, maqsad sifatida qo'yilishi mumkin.



2-rasm. Ta'lim turizmi xizmatlari tamoyillarining Sustainability (Barqarorlik) konsepsiyasi¹

Bunda maqsad quyidagi umumiy xususiyatlarga ega bo'lmog'i zarur (3-rasm):

- bir ma'noli, qisqa va aniq bo'lishi bizning yuqorida keltirilgan misolimizda ta'lim turizmi xizmatlari ulushini oshirishda ifodalanadi;


- miqdoran o'lchovga ega bo'lish xususiyati mos ravishda ta'lim turizmi xizmatlari ulushini

¹ Muallif ishlanmasi

15% oshirish bilan namoyon bo‘lmoqda;

- barcha ijro etuvchilarga tushunarli bo‘lishi, ya’ni joriy misolimizda ta’lim turizmi xizmatlarinin taklif etuvchi, shakllantiruvchi barcha turistik tashkilotlarga tegishliligi bilan izohlanmoqda;

- real amalga oshirishi mumkin bo‘lishi, ayni paytda bunday xizmatlar mavjud hamda mamlakatimizda 2023 yilda tegishli xizmatlarni hissasini oshirish imkoniyati mavjud.



3-rasm. Ta’lim turizmi maqsadlarining umumiy xususiyatlari tasnifi¹

Ta’lim turizmining xizmatlarining asosiy maqsadi undan foydalanuvchining ham sayohat qilish istagini qondirish, ham yangi ma’lumot olish, o’rganish, ta’lim olishga bo’lgan ehtiyojining qondirilishidir. Demak, yuqorida keltirilgan maqsadning umumiy xususiyatlariga qo’shimcha ravishda biz quyidagi joriy xususiyatlarini kiritamiz:

- *mamlakatning turizm salohiyatini namoyon qilish.* Ta’lim turizmi xizmatlari taklifida va targ’ibotida mamlakatning mavjud turizm salohiyati muhim o’rin tutadi hamda xizmat ko’rsatish jarayonida, sifatiga, istiqbolda turli turizm turlari oqimini oshirishda bevosita ta’sir etadi.

- *tarixiy-madaniy merosni tanishtirish.* Odatda ta’lim turizmida joriy mamlakatning tarixiy-madaniy merosi sanalgan diqqatga sazovor joylarga sayohat ta’lim dasturi tarkibida kiritilgan bo’ladi, o’z navbatida mamlakatning ijtimoiy-madaniy hayoti haqida dunyoqarashini rivojlantiradi.

- *ta’lim sohasidagi imkoniyatlarni tanishtirish.* Ta’lim turizmi xizmatlari taklifida, odatda davlatlar xususiyatidan kelib chiqib, u yoki bu ta’lim yo’nalishlarini nazarda tutadi va ixtisoslashadi. Ta’lim sohasidagi imkoniyatlarni tanishtirish orqali tegishli ta’lim turizmi xizmatlari iste’molini kengaytiradi.

- *ta’lim xizmatlarini tijoratlashtirish.* Ma’lumki, ta’lim turizmini amalga oshirishning bosh maqsadi tegishli bilim, malaka, ko’nikmaga ega bo’lishdir. Bu kabi ehtiyojni qondirish ta’lim xizmatlari realizasiyasiga asoslanadi.

Fikrimizcha, *aynan qo’yilgan maqsadimiz bo’lajak faoliyatimizni aniqlab beradi hamda harakatlarimizni aniq soha, ishga yo’naltiradi.* Maqsadning aniqligi uning amalga oshirilish ehtimoligini kuchaytiradi.

Keyingi bosqich maqsaddan kelib chiqib vazifani aniqlash hisoblanadi. Vazifa - bu maqsadga erishishda amalga oshirilishi zarur bo’lgan harakatlar, faoliyatlar ketma-ketligida

¹ Muallif ishlanmasi

ifodalanadi. Yuqoridagi misolimizda, mamlakatimizda 2023yilda turistik xizmatlar tarkibida ta'lim turizmi xizmatlari ulushini 15% ga oshirish uchun:

- O'zbekistonda 2022 yilda ko'rsatilayotgan turizm va ta'lim turizmi xizmatlari ko'rsatkichlari tahlili (hududlar kesimida);

- mamlakatimizda ta'lim turizmi xizmatlarining turlari, tarkibi va ularning mos ravishda ulushi va taklif etuvchi tashkilotlar (turoperator, turfirma, gid, ta'lim institutlari...) ro'yxatini tayyorlash;

- 2023 yil uchun taklifi rejalashtirilgan ta'lim turizmi xizmatlari konsepsiyasini ishlab chiqish;

- 2023yil uchun mo'ljallangan biznes-model va biznes-planni ishlab chiqish va 2022yil dekabr oyigacha tasdiqlash kabilar vazifalar sifatida ko'rsatiladi. Bunda ushbu vazifalarni ijro etuvchi subyektlarga O'zbekiston turizm va madaniy meros vazirligi, uning hududiy bo'linmalari hamda boshqa turistik tashkilotlarni sanab o'tish mumkin. Demak, ta'lim turizmi *vazifalari maqsadga yo'naltirilgan makro miqiyosdagi harakatlarda ifodalanadi.*

Ta'lim turizmining vazifasi quyidagi yo'nalishlar bilan belgilanadi:

- 1) ta'lim (sayohat ishtirokchilari tomonidan tabiiy va madaniy ob'ektlarni o'rganish, tafakkur va tabiatshunoslik dunyoqarashini rivojlantirish; madaniyatni tarbiyalash, yangi va turli xil narsalarni ko'rish, ko'nikma va malakasini oshirish);

- 2) dam olish va sog'lomlashtirish (takomillashtirish, hissiy va estetik zavq olish);

- 3) ijtimoiy-iqtisodiy (fuqarolarning dam olish huquqi, aholining turli guruhlari, shaharlar, mamlakatlar o'rtasida do'stona munosabatlarni shakllantirish, mahalliy aholining moddiy ahvolini yaxshilash, turistik hududning iqtisodiy holatini yaxshilash);

- 4) turli ta'lim xizmatlari taklifi (hududda mavjud ta'lim xizmatlari haqida ma'lumot bilan tanishtirish, bunday xizmatlarini tijoratlashtirish maqsadida mos taklifni shakllantirish)

Ta'lim turizmi xizmatlari *funksiyasi* yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, *asoslangan holda amalga oshiriladigan real faoliyatda ifodalanadi.* Ya'ni, ta'lim turizmi hissasini oshirish bo'yicha keltirilgan misolimizda vazifalarni amalga oshirish kichik ko'lamlarda, aniq muddatlari belgilangan holda, konkret faoliyatda aks ettirilishi talab etiladi. Ijro etuvchi esa tegishli ixtisoslashgan tashkilot(turoparetor, turli ta'lim xizmatlari taklif etuvchi yuridik shaxslar, turfirmalar, tashish xizmati, joylashtirish xizmatini taklif etuvchi tashkilotlar)lar zimmasida bo'ladi


Fikrimizcha, ta'lim turizmi funksiyalari ta'lim turizmi turlari hamda maqsadiga qarab o'zgaruvchan xarakterga ega. Masalan, ta'lim turizmining tarbiyaviy funksiyasi, muloqot va hamkorlik funksiyalari mustaqil turistlar uchun farqli namoyon bo'ladi. Chunki tashkillashtirilmagan sayohatda turist barcha ehtiyoji mavjud bo'lgan xizmatlarni rejalashtirishi, bevosita muloqotga kirishib tashkil etishi, mavjud muammolarni hal etishi, zarur axborotlarga ega bo'lishi, vaqt va iqtisodiy omillar taqsimotini to'g'ri tashkillashtirishi zarur. Bunday jarayonlarda albatta uning kirishuvchanlik, til savodxonligi, qiziquvchanlik, boshqaruv, tahliliy fikrlash kabi qobiliyatlari rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi, zarur hayotiy tajribaga, ko'nikmaga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ta'lim turizmidagi asosiy maqsad tegishli sohada chuqur bilimga ega bo'lish, rivojlantirish, tadqiqotlar olib borish orqali ilmiy xulosalar, yangiliklar yaratishlar asosida intellektual yuksalishga erishadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib, ta'lim turizmi xizmatlari maqsadi, vazifa va funksiyasi orasida bog'lanishni biz quyidagi rasm orqali ifodaladik (4-rasm). Unda ta'lim turizmi xizmatlarining mos ravishdagi yo'nalishlari ham sanab o'tilgan. Albatta, ularning hammasini ishlab chiqishda, yo'nalishlarini belgilashda ta'lim turizmi tamoyillari asos sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim ekskursiyalarini rejalashtirish va rivojlantirish davrida potentsial turistik hududning shart-sharoitlari va resurslari kompleksi tahlil qilinadi va baholanadi. Bunda resurs majmuasining axborot, ekologik, ijtimoiy, estetik, madaniy qiymati hisobga olinadi. Sayohatning ta'lim samaradorligi hududning sig'imi va barqarorligi, ishonchligi, qulayligi, barqarorligi kabi

xususiyatlariga bog'liq. Hududning uzoq vaqt davomida katta guruh talabalarining kognitiv ehtiyojlarini qondirish qobiliyati ta'lim resurslarining imkoniyatlari sifatida aniqlanadi. Imkoniyat ko'rsatkichi ko'p jihatdan hududning turistik va ta'lim salohiyatini belgilaydi.



4-rasm. Ta'lim turizmi xizmatlari: maqsad, vazifa, funksiyalari ¹

Tabiiy muhitning tarkibiy qismlari turizmni rivojlantirish uchun tabiiy shartlar bo'lib xizmat qiladi va ta'lim turizmi faoliyati uchun turli xil qadriyatlarga ega. Ta'lim turizmini rivojlantirish uchun har qanday tabiiy parametrning ahamiyatini baholashda komponentlar bo'yicha tahlil qilish, shuningdek, bir nechta omillardan kompleks foydalanish imkoniyatlarini aniqlash kerak.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. UNWTO World Tourism Barometer: September 2022
2. [Ички туризм хизматларини диверсификация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида](#) Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 30.04.2022 йилдаги ПҚ-232-сон
3. <https://uz.wiktionary.org/wiki>
4. Гусейнова А.Г. Сущность понятия «образовательный туризм» и его основные принципы. Вестник Ассоциации вузов туризма и сервиса. 2015, №4. Том 9. С.64-69.
5. Ковалёва А.Н. Педагогический потенциал образовательного туризма в системе непрерывного образования человека: автореф. дис. канд. пед. н. В. Новгород, ФГБОУ ВПО Новгородский гос. ун-т имени Ярослава Мудрого, 2013.
6. Судороженко А.В. Функции и роль образовательного туризма. Вестник университета, №16, 2013. 96-стр.
7. Жукова М. А. Менеджмент в туристском бизнесе: Учебник для поступающих в ВУЗы, М.: Кнорус, 2013. С. 192
8. Cui, Yingfang. Research on the development status and suggestions of research & study travel. Jiangsu Business Theory. 2020; 03:74-76.
9. Tsai-Fa Yen, Qinglin Zhang, Yanxia Zhang. The Nature of Educational Tourism: The Aspects of Means-end Chain Approach, Yen et al.; AJESS, 17(1): 5-6, 2021; Article no. AJESS.67893.
10. Ўзбекистон президенти Ш.Мирзиёев Олий Мажлисга 2020 йилги Мурожаатномаси.

¹ Muallif ishlanmasi

Muassislar:
Buxoro davlat universiteti
“Economic science” mas'uliyati cheklangan jamiyati

"IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali 2022-yil 5-son (7) 2021-yildan chiqa boshlagan. OBUNA INDEKSI: 200117 Manzil: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy, 2-bino, 403-xona.	ilmiy va innovatsion nashri Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas'ul: Gavhar XIDIROVA Muharrir: Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 26.09.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 03.11.2022 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 580. Bahosi kelishilgan narxda. “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.
---	---	---